

**SAMARQAND VILOYATIDA ONALAR VA BOLALAR SALOMATLIGINING
TIBBIY-GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI**

Daminova Oydin Oston qizi

daminovaoydin2@gmail.com

Anotatsiya: *Ushbu maqola Samarqand viloyatida onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, tibbiy xizmatlarni takomillashtirish, profilaktik tadbirlar, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda ona va bola salomatligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, hududda amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyati va istiqbollari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *onalar salomatligi, bolalar salomatligi, Samarqand viloyati, reproduktiv salomatlik, profilaktika, perinatal yordam, emlash, sog‘lom turmush tarzi.*

Kirish. Hozirgi kunda Jahon iqtisodiyoti juda tez su‘ratlar bilan rivojlanayotgan va keskin raqobat ko‘chayayotganligi, pandemiya sharoitida insonlar orasida turli kasalliklarning tarqalishi va ayniqsa homlador ayollar, bolalar o‘rtasida virusli kasalliklarning ko‘payib ketishi sabab bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasida hozirgi kunda onalar va bolalar salomatligiga katta e‘tibor qaratilmoqda, chunki sog‘lom onadan sog‘lom avlod dunyoga keladi.

Kasallanish va umr ko‘rish davomiyligining global va mintaqaviy miqyosidagi geografik tafovutlari salbiy tibbiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning aholi salomatligiga ta‘sirining hududiy o‘zgaruvchanligi bilan bog‘liq. Shu sababli, atrof-muhit va aholi kasallanishining hududiy farqlanishi o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish talablarini inobatga olgan holda dunyodagi va muayyan tibbiy-geografik holatlarni o‘rganish va u yerdagi tibbiy muommolar uchun tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish har qanday mamlakat sog‘liqni saqlash tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Sog‘lom ona-avlod garovi hisoblanadi. Shu sababli O‘zbekistonda, jumladan Samarqand viloyatida ham homilador ayollar, yangi tug‘ilgan chaqaloqlar va bolalarga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, zamonaviy diagnostika va davolash usullarini joriy etish, profilaktik tadbirlarni kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Asosiy qism. Ilmiy tadqiqotning muhim jihati Samarqand viloyati nozoekologik sharoitlarning geografik tafovutlarini tahlil qilish orqali, turli hududlardagi onalar va bolalar o‘rtasidagi kasallanish va o‘lim holatlarini o‘rganib chiqishdan iborat. Samarqand viloyati onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha tug‘ruq majmualari, perinatal markazlar, oilaviy poliklinikalar hamda bolalar shifoxonalari faoliyat yuritadi. Aholiga 392 ta birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalari xizmat ko‘rsatadi. Aholiga 2026-yil boshida 4,3mlnga yaqin bo‘lib, shundan 1 yoshgacha bo‘lgan bolalar 221 ming nafardan ortiq yani

5,2 foiz, 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar esa 1,37mln nafardan ortiq yani 31,9 foizni tashkil etadi.Hozirgi kunda homlada turli nuqsonlar ko‘zatilmasligi uchun homlador ayollar ,muntazam tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib borilmoqda,skrining tekshiruvlari,prenatal va postnatal kuzatuvlar amalga oshirilmoqda.bular ona va bola o‘limini kamaytirish hamda sog‘lom farzand tug‘lishini ta‘minlashga qaratilgan.

Afsuski bularga qaramay turli hududlarda homlador ayollarda kamqonlik,bolalarda mikroelementlar yetishmovchiligi,noto‘g‘ri ovqatlanish va surunkali kasalliklar uchrab turadi. Viloyatning chekka hududlarida olis qishloq joylarida ayollarning homladorlikda kechga qolib murojat qilishlari,skrening tekshiruvlariga kechga qolib borishlari,turli bola uchun kerak bo‘ladigan vitaminlarni qabul qilmasligi va toza suv is‘temoliga e‘tiborsizlik tufayli ,onalarda kamkuch bo‘lish, bazan tug‘ruq jaroyonida kuch yetishmaslik,yoki homladorlik davrida onadagi turli asabiyliklar sababli bolalarda nihoyatda ko‘p yig‘lash holatlari ko‘zatilmoqda. Hozirda ekologiyadagi juda ko‘p o‘zgarishlar bo‘lganligi ham homlador ayollarga va yosh bolalarga katta ta‘sir o‘tkazmoqda.Masalan pandimiya davrida onalardagi yuqumli kasallik albatta homilaga ta‘sir ko‘rsatadi.Bolalarda 1 yoshgacha bo‘lgan davrda juda ko‘p pelivmaniya holatlari ko‘zatilmoqda. Bu oddiy shamollashdan farq qilib bolalarning yutal bo‘lishga moyilligini nihoyarda oshirib yubordi. Shahar hududlarida transport vositalarining ko‘pligi ham toza havo yetishmaligiga olib kelmoqda.

Tog‘li hududlarda yashovchi aholida masalan kislorod yetishmasligi holatlari ko‘zatilishi mumkin. Ayniqsa 2000 metrdan yuqori hududlarda bu yaqqol ko‘zga tashlanadi.Yana bu hududlardagi chaqaloqlar kam vaznli bo‘lib tug‘ilish holatlari ko‘zatilishi mumkin.Viloyatda tez tibbiy yordam tizimi ham kengaytirilgan bo‘lib ,18ta tez tibbiy yordam stansiyalari,316 ta tibbiy brigade va 451 ta tez yordam avtomobili aholiga xizmat ko‘rsatmoqda.

Samarqand viloyatida bolalarda eng ko‘p uchraydigan tug‘ma nuqsonlar quyidagilardan iborat:

- tug‘ma yurak nuqsonlari
- asab tizimi rivojlanish nuqsonlari
- lab va tanglay yoriqlari
- tayanch-harakat tizimi nuqsonlari

Samarqand davlat tibbiyot universiteti olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqot eng ko‘p bolalarda uchraydigan tug‘ma yurak nuqsonlari hududdagi dolzarb pediatrik muommolardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Bunga sabab esa turli virusli infeksiyalar,qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh,foliy kislotasi yetishmovchiligi,qandli diabet va boshqa surunkali kasalliklar sabab bo‘ladi.

Xulosa Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish,bolalar o‘limini kamaytirish sog‘liqni saqlash tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi,jamiyatning demografik barqarorligini ta‘minlash muhim jihat hisoblanadi.Shu bilan bir qatorda homilador ayollar orasida kamqonlik ,surunkali kasalliklar ,ba‘zi hududlarda tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarida farqlar mavjudligi,чекка hududlarda tug‘ma nuqson bilan tug‘ilishni oldini olish tibbiy geografiyaning asosiy maqsadlaridan

20-Iyul, 2026-yil

biridir. Kelgusida sog'liqni saqlash tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish va har bir hududdagi kadrlar malakasini muntazam oshirib boorish, eng olis qishloq hududlariga ham dori darmon vositalarini yetkazib berishni to'g'ri yo'lga qo'yish muhim sohalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Komilova N .K Tibbiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. Monografiya , Toshkent 2016.
2. G'ulomov P.N Inson va tabiat. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti 2009
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish hamda ona va bola salomatligini mustahkamlashga oid farmon va qarorlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasi demografik va sog'liqni saqlash ko'rsatgichlari-Toshkent